

JANGOVAR HARAKATLARDI QO'LLANILAYOTGAN ZIRHLI TEXNIKALARNING IMKONIYATLARI VA EVAKUATSIYA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Yuldashev Jasurbek Maxamatovich

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi
qo'shinlar instituti Texnik ta'minot kafedrası katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jangovar harakatlarda qo'llanilayotgan zirhli texnikalarning imkoniyatlari va evakuatsiya qilishdagi muammolar aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *jangovar harakat, zirhli texnika, texnik imkoniyat, evakuatsiya.*

Hozirgi kunda jahon miqyosida vaziyat qanday tez o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol tobora keskin tus olayotgani, turli qarama-qarshiliklar, mojaro va qon to'kishlar kuchayib, xalqaro terrorizm, ekstremizm va transchegaraviy jinoyatlar xavfi ortib borayotgani, yaqin yon-atrofimizda davom etayotgan harbiy to'qnashuvlar bizda chuqur tashvish va xavotir tuyg'usini uyg'otmasdan qolmaydi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalar zamirida hamda yuqorida aytib o'tilgan xavf va tahdidlar birinchi navbatda davlatimiz manfaatlarini himoya qilish maqsadida Qurolli Kuchlarimizning jangovar qudrati va salohiyatini oshirishni, ularning tezkor qo'llanilishi, qo'shinlar jangovar ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishida ilmiy asoslangan zamonaviy yondoshuv va uslublarni tizimli ravishda o'rganishni talab etadi [1].

Butun dunyoda keskinlashib borayotgan harbiy siyosiy vaziyat harbiy-sanoat kompleksining barcha korxonalarini modernizatsiya qilishni taqazo etmoqda.

Bunga asosiy sabab Ukraina harbiy-sanoati Sovet Ittifoqi parchalanishidan meros bo'lib qolgan sovet texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Bu shuni anglatadiki, keyinchalik Ukrainaga g'arb davlatlaridan jangovar texnikalar sotib olinsa ularni ta'mirlash boshqa mamlakatlarda amalga oshirilishi kerak, bu jarayon esa jiddiy xarajatlarga olib keladi.

Bundan tashqari nafaqat jangovar texnikalar qolaversa havo hujumidan mudofaa tizimlari, aviatsiya va boshqa turdagi qurollarni ham ta'mirlash katta Bugungi kunda Ukraina qo'shinlari uchun Dunyoning yetakchi davlatlaridan turli rusimdagi zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar kiritilmoqda, lekin kiritilgan qurol-aslaha va harbiy texnikalar mukammal o'rganilmagani sabab, kam hajmli zarar ko'rganda ham (ekipaj) shaxsiy tarkibi tomonidan qoldirilib ketilmoqda.

Ukrainaga bo'layotgan jangovar harakatlar va qurollimojarolar tajribasi tahliliga ko'ra qo'shinlardagi qurol-aslaha va texnikalarni evakuatsiya qilish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Jangovar harakatlar jarayonida tomonlarning asosiy vazifalaridan biri dushmanning tirik kuchlari bilan bir qatorda, yuqori yashovchanlikka ega, yengil zirhlangan va zirhlangan harbiy texnikalarga o'ta aniqlik bilan zarba berib talofat yetkazishdan iborat bo'lmoqda. Shuningdek, jangovar harakatlarga jalb qilingan

bo'linmalar tarkibidagi evakuatsiya qiluvchi texnikalarga ham dushman tomonidan olovli zarbalar berilib talofat yetkazish har ikkala tomonning asosiy ob'ekti va sub'ekti sifatida qaralmoqda.

Jangovar harakatlar vaqtida har ikkala kuchlarning jangovar guruhlarining o't ochish pozitsiyalariga, yengil zirhlangan va zirhlangan texnikalarni o't ochish xandaklarga uchuvchisiz uchish apparatlar yordamida zarbalar berilib, shaxsiy tarkibni qurbon bo'lishiga va texnikalarni qisman yoki to'liq safdan chiqishiga olib kelmoqda.

Bugungi bo'layotgan jangovar harakatlar taxlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki jangovar harakatlar maydonlarida safdan chiqqan, talofat ko'rgan qurol-aslaha va harbiy texnikalarni uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida qidirib topishga bo'lgan talab tobora oshib borayotganligi sababli ulardan keng qamrovda foydalanish iqtisodiy jihatidan qulayligi e'tirof etilmoqda.

Bundan tashqari tomonlar kichiknosozliklar oqibatida safdan chiqqan qurol-aslaha va texnikalarni qo'lga kiritishda ham yaxshi ko'rsatkichlarga erishmoqdalar.

Rossiya federatsiyasi qurolli kuchlari jangovar qobiliyatini saqlash maqsadida birinchi navbatda jangovar vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan qurol-aslaha va texnikalarni evakuatsiya qilib qisqa muddatlarda ta'mirlab safga qaytarish choralari ko'rmoqda.

Bu ishlarni ta'mirlash mutaxasislari sutkada vomida navbatma-navbat amalga oshirishmoqda. Evakuatsiya ishlari BREM-1 mashinasi orqali talofat ko'rgan barcha turdagi zirhli va avtomobil texnikalar jang maydonlaridan olib chiqarilmoqda. Agar kichik ta'mirlash ishlari bo'ladigan bo'lsa yaqin pana joylarda amalga oshirib safga qaytarilmoqda. Shuningdek kuchli shikastlangan yoki talofat ko'rgan bo'lsa zudlik bilan alohida ta'mirlash va tiklash bo'linmalari joylashgan hududlarga evakuatsiya qilinmoqda.

Ukraina tomonidan jang maydonidan shikastlangan texnikalarni olib chiqish uchun evakuatsiya vositalari yetishmayotganligi yuqori boshliqlar tomonidan tanolinmoqda. Evakuatsiya va ta'mirlash vositalarining yetishmasligi Ukraina qurolli kuchlarining jangovar texnikalarini butkul tugashiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari Ukrainaga yuborilayotgan NATO davlatlari tomonidan texnikalarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar yetishmasligi vujudga kelgan.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish mumkin:

- doimiy ravishda dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qurol-aslaha va jangovar mashinalarning tuzilishi va imkoniyatlarini o'rganib, qurolli to'qnashuvlarni muntazam ravishda taxlil qilib borish lozim.

- jangovar harakatlarda talofat ko'rgan, botgan (yengil, o'rta, og'ir, o'ta og'ir) jangovar texnikalarni qisqa vaqt ichida evakuatsiya qilishda qo'llanilayotgan maxsus texnikalarning imkoniyatlarini o'rganib chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi.
<https://president.uz/uz/lists/view/4916>
2. Internet manbalari